Республика илмий-амалий конференцияси

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
ИНСТИТУТИ

# УМУМФИЛОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

2015 йил 16 июнь

Атоқли тилшунос олим,
профессор Бозорбой Ўринбоев
таваллудининг 80 йиллигига
бағишланган
"Илм ва таълим фидойиси"
мавзусидаги илмий-
амалий конференция
материаллари









Жиззах-2015

формами самостоятельного учебно-исследовательского и научного труда могут быть выступления студентов с сообщениями (докладами, рефератами) о результатах УИР и НИР на заседаниях кружков, кафедр; устные и письменные отчеты и т.д.

Наши наблюдения показали, что самостоятельная работа способствует активности творческой деятельности студентов, формированию их педагогической позиции и стиля деятельности, выработки профессиональных умений, а также закрепляет их уверенность в правильности выбора профессии.

## O'QUVCHILARDA MUMTOZ MUSIQAGA OID BILIM VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

***E.Abdukarimova,***
***O'.To'g'ilov***
***JDPI***

O'zbek xalqining ko'hna va boy madaniyati asrlar osha qudratli ma'naviyat bo'lganligi o'tmish tarix zarvaraqlaridan ma'lum. Xalq ijodiy yaratuvchanligining yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan xalq musiqa merosi o'zida milliy qadriyatlarni mujassam etgan holda hozirgi kunda ham badiiy estetik, tarbiyaviy – ta'sirchanligi bilan shaxs ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutib kelmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch " asarida xalqimiz madaniy merosida salmoqli mavqega ega bo'lgan musiqa san'ati uning tarbiyaviy imkoniyatlari haqida shunday yozadi "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab top'langan tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda ma'dad bo'lgan.

O'zbek an'anaviy musiqasi o'tmishdan asosan ikki yo'nalishda, ya'ni bir-biridan paydo bo'luvchi, bir-birini to'ldiruvchi, shu bilan birga o'zining alohida xususiyatlari va sifatlariga ega bo'lgan yo'nalishda rivojlanib kelgan. Bulardan biri xalq donishmandlarining badiiy ifodasi bo'lgan folklor musiqasi bo'lsa, ikkinchisi xalq, yaratuvchanligining ijodkorlar tafakkuri bilan yo'g'irilgan mumtoz musiqadir. Bu ikki yo'nalishdagi milliy musiqa san'ati o'zida xalq ruhiyatini to'laqonli aks ettirishi, unga xos bo'lgan turmush tarzi, hayotiy orzu-intilishlari, xis-tuyg'ularini va xalq pedagogikasining eng ilg'or g'oyalarini ifoda etishi bilan ijtimoiy tarbiyani tashkil etishining samarali vositalaridan sanaladi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya tizimini milliy asoslarda, ya'ni uni xalqimizning boy milliy-musiqiy merosi negizida shakllantirish asosiy mezon qilib olindi. Musiqa ta'limi hamda tarbiyasi, mazmuni va mohiyati milliy musiqa zamirida ishlab chiqildi. Dastur va darsliklar shu asosda yangitdan ishlab chiqildi, o'rganiladigan repertuarda xalq

ijodiyoti mahsuli bo'lgan folklor, mumtoz va maqom namunalari yetakchi o'rin ajratildi.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, shu jumladan uning eng muhim shakllantiruvchi bo'g'ini bo'lmish umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni birinchi navbatda xalq musiqa merosi bilan har tomonlama chuqur tanishtirib borish ularda milliy ong, milliy tafakkur, milliy o'zlikni anglash bilan milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan umumta'lim maktablarida o'quvchilarni o'zbek xalq musiqa merosi, xususan uning mukammal ijod mahsuli, inson badiiy tafakkuri va iste'dodining nodir, mukammal va yetuk namunasi bo'lgan mumtoz musiqa bilan tanishtirish, qanday maqsad va vazifalarni ko'zda tutadi va bu maqsad, vazifalarni amalda muvafaqqiyatli qanday mezonlarga tayanib ish tutish lozim va u kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi?

Mana shunday vaziyatda musiqa o'qituvchilari qanday ish tutishi, qanday metod, usul shakllar, vositalardan foydalanishi mavjud muammolarni ijobiy yechim topishi. Ushbu muammoni ilmiy-tadqiq qilish yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz bizni quyidagicha dastlabki xulosalarni chiqarishimizga sabab bo'ldi:

1. O'quvchilarning har birini xalq musiqa merosi hamda mumtoz va maqom musiqalariga bo'lgan munosabatlarini, ya'ni tinglash, u haqidagi ma'lumotlar, mashhur ijrochilari haqida bilish, o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o'rganib borish;

2. O'quvchilarni mumtoz musiqalarni folklor musiqasi yoki bolalar uchun yozilgan zamonaviy qo'shiqlardan farqli o'laroq murakkab tuzilishi, ritm, o'lchov, keng diapazoniga egaligi, uni ijro etish, g'oyaviy - badiiy mazmunini anglash uchun ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lish lozimligini tushuntirish, xis etishlarini o'rganish, shunga ko'ra dars mazmuni, o'rganiladigan namunalarni tanlash, o'quvchilarga yetkazalidigan ma'lumot tushunchalarini belgilash;

3. O'quvchilarning yosh xusussiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va alohida iqtidorlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi, dars jarayonida e'tiborda olish;

4. Dars jarayonida mumtoz asarlarni o'rganish kuylashga nisbatan tinglash, uning badiiy qimmati, yuksak ijod namunasi mohir ijrolari va ijrochilari haqida suhbat, tushunchalarga ustuvor ahamiyat qaratish;

5. O'quvchilarning mumtoz va maqom musiqa asarlarini tinglash, o'z imkoniyatlariga mos namunalarni kuylash, o'rganishga bo'lgan ehtiyojlari va shunga muvofiq iqtidorlari, ijro ko'nikmalarini hisobga olgan holda darsda o'rganilgan repertuar majmuini shakllantirish;

6. O'quvchilarning mumtoz asarlardan namunalar ijro etish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beruvchi ilg'or tajribalar, metodikalarni uzluksiz ravishda o'rganib borish, darslarni pedagogik, psixologik hamda metodik talablarga muvofiq bo'lihiga intilish va shu asosda tashkil qilish;

7. Dars jarayonida o'quvchilarni mumoz asarga baho berish, uni boshqa yengil janrlardagi namunalar bilan taqqoslash, farqli jihatlarini aniqlash, baho

berish, munosabatini bildirib borishlariga imkoniyat yaratish, bu boradagi "o'zgarish" larni kuzatib borish;

8. Mashg'ulotlar jarayonida ko'rgazmali, texnik vositalardan unumli foydalanish darslarni samarali kechishiga yo'naltirilgan ta'lim metodlari savol-javob, bahs-munozara kabilardan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish;

9. Mumtoz asarga xos nola, salmoq, qochirim va boshqa bezaklarni bolalar tomonidan to'g'ri farqlash, ijroda ularni aks etish holatlarini idrok etish, tahlil qila olishlariga erishish;

Musiqa darslarini sifat va samarali kechishida o'quv xonasining jihozlanishi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda mumtoz asarlar mualliflari (bastakor, she'r- g'azal muallifi) hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni, ularning portretlari (mashhur hofizlar, mumtoz adabiyot namoyondalari) turli nola va qochirimlarni notadagi tasvirini ifodalovchi ko'rgazmali qurollar, darslik, o'quv-texnik vositalar, o'zbek milliy cholg'ulari mavjud bo'lishini ta'minlash ham muhim omil sanaladi. Musiqa o'qituvchilarning shu tarzda darslarni tashkil etishi o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyotining mumtoz namunasi bo'lgan cholg'u asarlari hamda ashulalarni qadriga yetib, ularni badiiy qiymatini to'g'ri baholay olish bilan bir qatorda ularga mehr qo'yib tinglash, farqlash, baho berish, ijro etishga intilishlarini rivojlantirishga, ularda milliy musiqa madaniyatini egallash imkoniyatlarini kengayishida o'z samarasini beradi.

*Мирзоҳидова Л.* «Қутадғу билиг»да инсоннинг моддий дунё ва жамият ҳақидаги кечинмалари ифодаланган рамзий ўхшатишлар ........................*169*
*Eshmurodov X.* To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarni sodda gapga transformatsiyalash ......................................................*172*
*Эшқуватов Ж.* Мулоқот самарадорлигининг воситалари ва усуллари...*174*
*Ёқубов Л.* Ўзбек тилида сўз ясалиши полисемияси масаласига доир мулоҳазалар ......................................................*177*
*Ҳасанова М.* Ўзбек адабий тилида сўз ясалишининг аҳамияти ................*178*
*Xakimova O.* O'zbek tili leksikasida so'zning semantik strukturasi................*180*
*Турдибаев Н.* Маҳмуд аз-Замахшарий тилшунос олим.............................*183*
*Жуманазаров У., Жуманазарова Д.* Таълим жараёнида инновацион технологиялар: тадқиқ ва натижалар ..............................................*185*
*Atajonova A.* Boshlang'ich sinf o'qish darslarida to'liq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalashdan foydalanish ..........................................*187*
*Ибрагимова Ф.* Чет тилини ўргатишда электрон дарсликларнинг афзалликлари ......................................................*190*
*Jumaniyozova M., Qo'chqarova Sh.* Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan "Tovushlar va harflar" bo'limining mazmuni va uni o'rganish vazifalari ......192
*Хасанова К.* О воспитании учащихся средствами иностранного языка... *194*
*Уразбаев Ҳ., Ибрагимова Ф.* Хорижий тилларни ўқитишда ўйинлар методи самарадорлиги ......................................................*196*
*Эргашева Н., Ганиев Н.* Место и значение русского языка в мире...........*198*
*Н.Кушвактов, М.Исоқулов.* Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини миллий кадриятлар руҳида тарбиялаш технологияси.........................*200*
*Т.Кавылова, Н.Исанова.* Роль интернета при обучении иностранным языкам ......................................................*202*
*Т.Кавылова, Т.Равшанова.* Некоторые приемы работы на уроках иностранных языков......................................................*204*
*А.Абдурахимов, Қ.Бобоқулов, Ш. Ўролов* Мусиқий фанларни ўқитишда она тили ва адабиёт фанларини бир бири билан боғлиқлиги...................*205*
*Х.Абдуллаев, С.Эгамбердиева* Самостоятельная Работа Студентов Как Компонент Творческой Деятельности......................................*208*
*E.Abdukarimova, O'.To'g'ilov* O'quvchilarda mumtoz musiqaga oid bilim va tushunchalarni shakllantirish......................................................*211*
*М.Соипназарова* Комил инсонни тарбиялашда таълим ва тарбиянинг узвийлиги......................................................*213*
*M.Tilavova, B.Sapayeva* Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda topishmoqlardan foydalanish..............................*215*
*Х. Назаров* Ёшлар тарбиясида илм олиш одоби......................................*217*
*Н.Усманов* Марказий осиё мутафаккирларининг мероси миллий ғоямиз манбаи сифатида......................................................*219*
*N.Hasanova, A.Jumayev* Barkamol avlod tarbiyasidagi milliy musiqa merosimizning ahamiyati......................................................*222*